



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING LIRIK MEROSI

Marjona Anvarova

*Farg'ona davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili
yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ulug' bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Boburning boy adabiy merosi, she'riy asarlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Bobur lirikasining tengsiz namunalari orqali mumtoz adabiyotning serqirra jihatlari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Bobur, ruboiy, lirika, g'azal, hasbi-hol, xarakter, Vatan, ahillik, ma'rifat*

Аннотация: *В данной статье раскрывается богатое литературное наследие нашего великого предка Захириддина Мухаммада Бабура, его поэтические произведения и их отличительные особенности. Через непревзойдённые образцы бабуровской лирики рассматриваются многогранные аспекты классической литературы.*

Ключевые слова: *Бабур, рубайи, лирика, газель, хасби-хол, характер, Родина, единство, просвещение*

Annotation: *This article explores the rich literary heritage of our great ancestor Zahiriddin Muhammad Babur, his poetic works, and their distinctive features. Through the unparalleled examples of Babur's lyric poetry, the multifaceted aspects of classical literature are examined.*

Keywords: *Babur, rubai, lyric poetry, ghazal, hasbi-hal, character, homeland, unity, enlightenment*

Kirish

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda Boburiylar sulolasi asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijon shahrida tavallud topgan. Otasi temuriyzoda Umarshayx Farg'ona viloyati hukmdori bo'lsa, onasi Qutlug'nigorxonim Toshkent



hokimi Yunusxonning qizi edi. Otasi bevaqt vafot etgach, Farg'ona hokimligi 12 yoshdagi Boburning zimmasiga tushdi va 15 yoshida bobomeros Samarqandni zabt etdi. Ammo taqdir taqozosi bilan o'z ona yurtini tashlab chiqishga majbur bo'ladi. 1526-yili Hindistonni zabt etib Boburiylar saltanatiga asos soldi.

Buyuk tafakkur egalarining dunyoga qarashi boshqa toifa kishilar nuqtai nazaridan tubdan farq qiladi. Negaki, ular kamolotning o'zlari erishmoqqa muyassar bo'lgan yuksakligi darajasidan fikr yuritadi. Shu jumladan, Boburning ham ahli jahondan kim ham yaxshilik ko'ribdi, modomiki shunday ekan, undan yaxshilik yetmog'iga ko'z tutma, deyishi sababini shuning bilan izohlash mumkin. "Ko'z tutma" - chinakam turkiy ibora. Baytdagi mazmun yo'nalishini teran falsafiy mushohada sari burgan ushbu ibora ulug' shoir tafakkurining milliy zaminga qurilgani isbotidir.

Keyingi baytda yaxshi-yamon, yamonliq-yaxshilig' tushunchalari hosil qilgan tazod vositasida fikr yanada ta'sirchan va san' atkorona ifodalangan:

Ey, ko 'ngul, chun yaxshidin ko'rdung yamonlig asru ko'p,

Emdi ko 'z tutmoq ne ma 'ni har yamondin yaxshilig'.

Mutafakkir kelgan xulosaga ko'ra, dunyo shunday qurilgan: yaxshilardanki yomonlik ko'rganingdan keyin yomonlardan yaxshilik kutish foydasizdir.

Boburning she'rlari asosan ikki devonga to'plangan. Birinchi devonga shoirning Movarounnahr va Afg'onistonda, ikkinchi devoniga Hindistonda yozgan she'rlari kirgan. U she'rlardan ayrim parchalarni o'zining "Bobirnoma"siga ham kiritgan. Undan bizgacha yetib kelgan 4000 misraga yaqin she'rining ko'pchiligi o'zbek tilida bo'lib, tojik tilida yozgan she'rlari ham bor. Bobur lirikasida g'azal, ruboiy va masnaviy janrlari katta o'rin tutadi. Bulardan tashqari u tuyuq, muammo, qit'a va fardlar (mustaqil baytlar) kabi lirikaning turli janrlarida ham she'rlar yozgan.

Ko'ngli tilag'an murodig'a yetsa kishi

Yo barcha murodlarni tark etsa kishi

Bu ikki ish muyassar bo'lmasa olamda

Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.



Ushbu ruboiyning yozilish holatini ko'z oldimizga keltirsak, u 19-20 yoshlarda g'ayrati dunyoga sig'magan paytlari bo'lsa-da, davlat ishlari, siyosiy ziddiyatlar uni ruhan tushkun holatga tushirib qo'yganligini ko'ramiz.

U "Boburnoma"da ijtimoiy- siyosiy hayot haqida fikr va mulohazalarini tarixiy voqealar va o'z sarguzashtlari bilan bog'lab bayon qiladi. G'azal va ruboiylarida esa, mulohaza va taassurotlarini lirik ravishda ifodalaydi. Bobur o'z she'rlarida hayot zavqlari va dunyoviy muhabbatini kuylaydi, kishilarni ilmi, ma'rifatli, odobli va aqlli bo'lishiga chaqiradi. U g'azallaridan birida aytadi:

Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatlari,
She'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.
Do'stlarning suhbatida ne xush o'lg'ay bahsi she'r
To bilingay har kishining tab'i birla holati.
Gar bu uch ishni muvofiq topsang ul uch vaqt ila,
Mundin ortiq bo'lmag'ay, Bobur, jahonning ishrati.

Bu g'azalida shoir ma'nisiz, maqsadsiz kayf-safoni emas, balki, ilm, adabiyot, she'r haqida bahs qilish mumkin bo'lgan kishining fikrini boyitadigan foydali suhbatni maqtaydi va shunday suhbatlar bo'lsin, deb orzu qiladi. Shoir kishilarni har bir ishda to'g'ri, vijdonli bo'lishga, yaxshi ot qoldirishga chaqiradi.

Bobur - buyuk qalb va ulkan ijodiy salohiyat egasi edi. Ahillik va ittifoq g'oyasi betakror badiiy talqin etilgan mana bu baytlari millat farzandlarini ulug' maqsad yo'lida birlashtirishga qaratilgan da'vat o'laroq barcha zamonlar uchun ham ibratlidir:

Ahbob, yig'ilmoqni farog'at tutingiz,
Jam'iyatingiz borini davlat tutingiz.
Chun gardishi charx budurur, Tengri uchun,
Bir-birni necha kuni g'animat tutingiz.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur lirik she'rlarida, ular qaysi janrda yozilgan bo'lmasin, milliy ruh ifodasi yetakchi o'rin tutadi. Ulug' mutafakkir she'riyatida millatning asl tabiati, siyrati mukammal darajada aks ettirilgan. Poetik mazmun milliy tafakkur vositasida o'ziga xos va ohorli talqin



qilingan. Badiiy adabiyotning asosi bo'lgan poetik obrazlar milliy ifoda orqali mukammal suvratlantirilgan. Bobur lirikasini milliy ruh ifodasi nuqtai nazaridan yanada chuqur va ko'lamli o'rganish adabiyotshunoslikning istiqboldagi dolzarb vazifalaridandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бобур, Захириддин Мухаммад. 2008. Гарбинг Андижонийдур. Сайланма шерлар. - Тошкент: Шарк.
2. S.Azimjonova "Zahiriddin Muhammad Bobur" Toshkent-1995
3. X.Nazarova "Boburnoma" Toshkent-1980
4. H.Qudratullayev " Boburning adabiy-estetik qarashlari" Toshkent- 1983